

Menga bering

Olam yaralgandan beri,
Odam yaralgandan beri,
Ajdodlarim imdodini
Menga bering, menga bering

O'g'lim, deb ishongan elim,
Kindik qonim tomgan elim.
Tuyg 'ularim ozodini
Menga bering, menga bering.

Ne baxt, besh yuz yildan beri,
Boqiydir bir bobom she 'ri.
Behzod chizgan suvratini
Menga bering, menga bering.

Temurnimas, Chingiznimas,
Osmon to'la yulduznimas,
Ulug'bekning niyatini
Menga bering, menga bering.

Osmonlarga uchgim kelur,
Shoh Mashrabni quchgim kelur.
Go'ro'g'lining G'irotni
Menga bering, menga bering.

Yerni ushlab to 'xtataman,
Yassaviy kim, ko 'rsataman.
Vatan adabiyotini
Menga bering, menga bering.

Shoir

Rizq sochar dalasiga,
Rizqin terib oladi.
Dehqondan bolasiga,
Bir kaft paykal qoladi.

Olmalar soyasiga,
Bir kun cho'kib toladi.
Bog'bondan bolasiga
Bog'i sayqal qoladi.

To'yishar yallasiga,
Tarixga yo 7 oladi.
Shoirdan bolasiga,
Qolsa... haykal qoladi!

“Yashaylik bir o‘zbek bo‘lib,
Bir uzukka ko‘zdek bo‘lib ”
Degan dilning murodini
Menga bering, menga bering.

G‘uncha jurnali.
Muhammad Yusuf.
O‘zbekiston xalq shoiri.